

**O‘ZBEK ZAMONAVIY PROZADAGI ARXETIPLAR SEMANTIKASI (ISAJON SULTONNING “BOQIY DARBADAR” ROMANI MISOLIDA)**

**Eshboyeva Tillaniso Nuryog‘di qizi**  
*O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori*  
*ilmiy institutining tayanch doktoranti,*  
*Toshkent, O‘zbekiston*  
*tillaniso@mail.ru*

**Annotatsiya:** *Maqolada o‘zbek zamonaviy prozasi vakili Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romaniga oida arxetip ramz, arxetip obraz, arxetip va arxetipik tasvir vositalari tahlilga tortiladi.*

**Tayanch so‘zlar:** *arxetip obraz, arxetip motiv, darbadar arxetipi, bashoratchi arxetip obrazi, “donishmand qariya” arxetipi, “qarg‘ish” diniy arxetip motivi, sahro arxetip ramzi.*

**Abstract:** *The article analyzes the archetypal symbol, archetypal image, archetypal and archetypal image tools related to the novel "Baqi Darbadar" by Isajon Sultan, a representative of modern Uzbek prose.*

**Key words:** *archetypal image, archetypal motif, darbadar archetype, seer archetypal image, "wise old man" archetype, "curse" religious archetypal motif, desert archetypal symbol.*

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunalarida ham turli xil arxetip ramz, arxetip motiv va arxetip obrazlarga duch kelishimiz mumkin. Arxetipik qahramon va obrazlar ishlatilishi o‘zbek adabiyotini muayyan bir madaniy va milliy tor chegaradan butun dunyo adabiyoti miqyosiga olib chiqishga xizmat qiladi. Barcha xalqlar adabiyotida uchraydigan arxetiplarni qo‘llash o‘zbek adabiyotini o‘z yo‘nalishidan chetga chiqishini anglatmaydi, aksincha, har qanday umuminsoniy hissiyotlarni ochib beradigan arxetiplarni qo‘llash adabiyot na‘munasini ham o‘z millati doirasidagi, ham jahon doirasidagi asar bo‘lishini ta‘minlaydi. Shunday ekan, arxetip ramz, arxetip obraz va arxetip motivlar o‘zbek adabiyoti va o‘zbek o‘quvchilari uchun ham begona emas. Arxetiplarning qo‘llanishi adabiyotning tushunarli bo‘lishiga hissa qo‘shadi. Turli xil murakkab syujet va murakkab falsafiy mushohadalar o‘quvchilar uchun tushunishga qiyinlik qilishi mumkin, ammo turli ramzlar orqali ifodalanadigan fikrlar har doim o‘quvchi uchun qalban tanish bo‘ladi. Har qanday o‘quvchilar bu kabi ramzlarga milliy va diniy afsonalarda duch kelishgan bo‘lishadi. Quyida keltiriladigan o‘zbek adabiyoti na‘munalarida turli xil arxetiplarni uchratamiz va ushbu asarlarning barchasi o‘zbek o‘quvchilari tafakkurini kengaytirishda, hayotni anglab yetishda va eng asosiysi o‘zining, barcha insonlarning haqiqiy “men”ini kashf etishda yordam bergan asarlar qatoriga kiradi.

Jahon adabiyotida keng tarqalgan arxetip obraz mavjud bo‘lib, ushbu arxetip turli tarzda – “Boqiy darbadar”, “Darbadar yahudiy”, “Boqiy yahudiy” nomlari bilan

ataladi. “Boqiy darbadar” arxetip obrazi abadiy yashashga mahkum etilgan qahramon haqidagi afsonalarda ilk bora Yevropada 13-asrda (asosan “Darbadar yahudiy” nomida) tarqala boshlagan. Ilk afsonalarga ko‘ra, payg‘ambar Isoni xochga olib ketishayotgan chog‘da uni haqorat qilgan kishi qiyomatgacha (Iso Masih ikkinchi marotaba qaytadigan chog‘gacha) abadiy yashashga mahkum etiladi. Ushbu boqiy darbadarning shaxsi turli rivoyatlarda turli ko‘rinishlarda tasvirlanadi. Ba’zi hikoyalarda uning etikdo‘z bo‘lganligi aytilsa, boshqalarida do‘kondor, yana boshqa birlarida esa uning Pontiy Pilat (Isoni xochlanishga hukm etgan kishi)ning qo‘riqchisi bo‘lganligi aytiladi. Ushbu obrazning arxetip obrazga aylanish jarayoni va jahon adabiyotiga kirib kelishi taxminan o‘n yettinchi asrga borib taqaladi. Ushbu afsonaning qisqa muddatda katta shuhrat qozonishiga o‘n yettinchi asrda yozilgan pamflet sababchi bo‘lib xizmat qiladi. “Ahasuerus nomli yahudiy haqidagi afsona” nomli pamfletga ko‘ra, ellik yil avval ruhoni boqiy darbadar bilan Gamburgdagi cherkovda ko‘rishib qoladi. Boqiy darbadar yupun kiyingan va yaqin kunlarda ko‘chib ketish haqidagi xayollarga berilgan bo‘ladi. Shundan so‘ng afsona Germaniya bo‘ylab yashin tezligida tarqalishni boshladi va qisqa muddat ichida afsonaning sakkizga yaqin versiyalari tarqaldi. O‘n sakkizinchi asr oxirlariga kelib esa afsonaning qirqqa yaqin versiyalari shakllanib ulgurgan edi.

“Darbadar yahudiy” arxetip obrazini Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarida ham uchratishimiz mumkin. Isajon Sulton hajm jihatidan kichkina bo‘lishiga qaramay, roman janrida yozilgan “Boqiy darbadar” asarini 2011-yilda alohida kitob sifatida nashrdan chiqardi. Asar undan oldinroq “Sharq yulduzi” jurnalida ham chiqarilgan. Asarda ikki syujet chizig‘i tasvirlanadi. Birinchi syujet Muborak Zotning qatl etilish sahnasidan boshlanadi. Muallif Muborak Zotning shaxsi, voqealar qayerda sodir bo‘layotgani va Muborak Shaxs qaysi gunohi uchun jazoga tortilayotgani haqida hech qanday ma’lumot bermaydi. Butun xalq tomonidan yomonotliqqa chiqarilgan Muborak Zot mahkum sifatida olib ketilar ekan, ko‘chadagi etikdo‘z xaloyiq ko‘z o‘ngida yaxshi taassurot qoldirish uchun uy devoriga suyanayotgan Muborak Zotga o‘shqirib, uni itarib yuboradi. Muborak Zot unga qarata “turgin va badar ketgin”, degan nuqtada Muborak Zotning aslida Iso Masih ekanligini va ushbu etikdo‘zning taqdirini qanday kechishini, shuningdek, ushbu obrazlarning qanday arxetipik ahamiyatga ega ekanligini anglab olishimiz mumkin.

Demak, yuqoridagi ma’lumotlardan ma’lumki, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarida butun boshli arxetip bosh obraz vazifasini bajargan. Qolgan obrazlar esa ikkinchi roldagi arxetipik ahamiyatga ega hisoblanadi (misol uchun “hazrat” yoki “avliyo” obrazi). Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarida ushbu arxetip obraz bosh qahramon sifatida tasvirlanganiga qaramay, asarda boshqa bir nechta arxetiplarga duch kelishimiz mumkin. Asar boshlangan nuqtada etikdo‘zning ayanchli taqdiri haqidagi bashorat haqida aytiladi. Ushbu bashoratdan xabar beruvchi “hazrat” obrazi asarlardagi eng qiziqarli rolni bajaruvchi “bashoratchi” arxetip obrazini ifodalaydi. Odatda ushbu vazifani bajaruvchi arxetip obraz kelajak haqida yaxshi yoki yomon

bashorat qilishidan qat'iy nazar qahramonlarning hech qanday harakati kelajakni o'zgartirishga xizmat qilmaydi. Ular asosan muayyan haqiqatlar haqida bashorat qilishadi. Asar o'quvchini darbadarning hayoti bilan tanishtirib o'tgach, Tiyonshon bag'ridagi g'orda istiqomat qiluvchi avliyo haqida hikoya qilinadi. Ushbu avliyo timsolida "donishmand qariya" arxetipiga guvoh bo'lishimiz mumkin. "Donishmand qariya" psixolog K.Yung tomonidan tasvirlangan psixologiyaga doir arxetip bo'lishidan tashqari, adabiyot na'munalarida ham juda ko'p marotaba uchraydigan arxetip obrazdir. Odatda ushbu arxetipni ifodalovchi obraz uzoq umr kechirgan, hayot borasida bilim va donishmandlikni to'la egallagan oqil kishi sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy vazifasi adashganlarga va yo'l qidirib kelganlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish, hayot haqida dars berish va turli rivoyat hamda ertaklar aytib, donishmandlik nurini odamlar orasiga tarqatish bo'ladi. "Boqiy darbadar" asarida ham avliyoning yuqoridagi sifatlarga ega ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. K.Yung qarashiga ko'ra, ushbu arxetip o'zlikni anglashning oxirgi boqichini ifodalaydi. Ushbu holatda shaxs o'zligini anglash jarayoni duch kelingan barcha qiyinchiliklarni yengib o'tgach, o'zining mukammal shakliga o'tadi. O'zlikni anglashning so'nggi bosiqichi nafaqat "donishmand qariya" balki, tabiat, ruhlar kabi ramzlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Adabiyotda juda ko'p holatlarda ushbu arxetip sehrar yoki sirli qobiliyatlarga ega qahramon obrazi orqali namoyon bo'ladi. Ammo "Boqiy darbadar"dagi obraz hech qanday sehrli qobiliyatlarga ega bo'lmagan, oddiy bir yeguliksiz yashay olmaydigan kishi. Yegulik u uchun Yaratgan tomonidan anjir ko'rinishida ato etilganligi aytiladi. Avliyo o'zini o'ldirish uchun kelgan insonga taqdir, yaratganning yer yuziga ato etgan tartibi va dunyoning mukammalligi to'g'risida aytib beradi. Taqdir masalasi bundan oldin ham, etikdo'z bilan bo'lib o'tgan voqeada tilga olingan edi. Etikdo'zning mudhish kelajagi yoshlikdanoq bashorat qilingan bo'lib, bu uning qochib-qutulib bo'lmas taqdiri ekanligi ma'lum edi. Taqdiri qarg'ishga bog'langan bunday qahramonlarni boshqa ko'plab miflarda va adabiyot na'munalarida ham uchratish mumkin. "Qarg'ish"ning o'zi ham arxetip motiv hisoblanib, ilk bora diniy rivoyatlarda (Xudoning Odam Ato va Momo Havvoni yerga jo'natishi hodisasi) uchraydi. "Qarg'ish" arxetipiga misol sifatida Qobil ("Qobil va Hobil" hikoyasidagi)ni ham ta'kidlab o'tish mumkin. Burrovs, Lapides va Shovkrossning fikriga ko'ra, "Darbadar Yahudiy", "Qadimgi dengizchi", "Uchuvchi daniyalik" kabi qarg'ishga uchragan obrazlar asosan, begona, jinoyatchi rollarini bajaradi va ular bizning ongimiz va ongsizligimizning tarkibiga aylangan.

Qarg'ishga uchragan insoniyat va qahramonlarning bashoratni amalga oshirishlari ifodalangan nuqtada "taqdir" arxetipik ramz sifatida ishlatilmoqda. Chunki taqdir nimaiki bitilmagan bo'lsin, sodir bo'luvchi hodisalarning barchasi ichkaridagi arxetiplarning namoyon bo'lish yo'li orqali shakllanib boradi. Shu jihatdan ham taqdir va boshqa arxetipik ramzlar o'zaro aloqadorlik hosil qiladi. Taqdir tashqaridan keladigandek tuyulsada, aslida u ichkaridan shakllanadi. Misol uchun, etikdo'zning taqdiri olindan belgilangan bo'lsada, o'sha taqdirga bo'lgan yo'ldan faqatgina o'zi yurib

bordi. U o'zligini topishga kech qoldi, faqatgina Yaratuvchining unga bergan jazosidan so'ngina Yaratuvchi qudratini anglab yetdi. Etikdo'zning mudhish xatosiga yetaklagan yo'lni "persona" arxetipi orqali izohlash mumkin. U o'zligini anglash o'rniga boshqalarning fikriga ko'ra harakat qilib, oqim bo'ylab suzishga, ichki meniga emas, balki jamiyat tomonidan shakllantirilgan "persona" sig'a bo'ysunishga qaror qildi va mana shu birgina xato uning butun boshli taqdirini belgilab berdi. Etikdo'zni o'zlikni anglashning ikki yo'li, to'g'ri yo'li yoki adashish orqali xatolardan anglash yo'li mavjud edi va u bilib-bilmay ikkinchisini tanladi. Avliyo esa aksincha, barcha bosqichlardan o'tgan, individuallashtirish jarayonida turli arxetipik qadamlarni birin-ketin bosib o'tib, tajribalar orqali o'z darajasiga yetishgan obrazni ifodalaydi. Ushbu o'rinda o'zaro ziddiyat ifodalanganligiga guvoh bo'lish mumkin. Ikkala qahramon ham taqdiridan qochib qutula olmadi, ammo ikkalasi ushbu belgilangan taqdirga turli arxetipik bosqichlardan o'tish orqali yetib bordi. Asarning davomini o'qir ekanmiz, toshbaqa maqbarasiga va uning ilohiy kuchlarga ega ekanligi, odamlar unga sig'inish maqsadida kelishi bilan bog'liq voqealarga duch kelamiz. "Toshbaqa" obrazi ham arxetip hisoblanib, u ko'plab afsona va rivoyatlarda takrorlanib keladi va turli madaniy qatlamlarda alohida ma'nosiga egadir. Misol uchun, qadimgi Xitoyda toshbaqa to'rt muqaddas yaratilardan biri hisoblangan va to'rt unsuridan biri bo'lmish suvni ifodalab kelgan. Qadimgi hindistonliklar esa askincha, toshbaqani qurg'oqchilik ramzi va quyosh xudosining dushmani, deb hisoblashgan. Ilk nasroniy ramzida toshbaqani oiladagi kamtarlik ramzi sifatida ko'rishimiz mumkin. Ammo toshbaqa obrazining keng tarqalgan ramziy tasavvurlaridan biri uning uzoq yashashi bilan bog'liqdir. Asarda ham boqiylik va foniqlik masalalari alohida e'tiborga olinganligi uchun, toshbaqani bu yerda boqiylik ramzi deb tushunish mumkin. Boqiylik nafaqat darbadarga, balki butun boshli olomonga teggan qarg'ish edi. Omma bu qarg'ishni toshbaqa kabi ming yillar davomida bo'yniga ilganicha, oldinga qarab sekinlik bilan harakat qilayotgan edi. Boqiylik miqyosida olganda har qanday harakat sekinlashadi va o'z ahamiyatini yo'qotib boradi. Asardagi asosiy urg'u ham hayotdagi o'z maqsadini anglashdan chekinib, behuda umrga rozi bo'lganlar ommasiga qaratilgan edi.

Asar so'ngida esa insoniyat tomonidan yaratilgan "mukammal odam" va uning o'z hayotidan mazmun izlab yo'lga chiqqani va sahroga qochib ketganligi haqida hikoya qilinadi. Asarda "sahro" arxetip ramzi ushbu voqealardan avvalroq ham qo'llanilgan. "Sahro" odatda yangilanish, qayta tug'ilish va hayotbaxshlik ramzi bo'lgan "suv" arxetip ramziga qarama-qarshi tarzda rivojlanishning mavjud emasligini bildiruvchi ramz hisoblanadi. Asarda tasvirlangan aniq manzilni ko'zlamagan sahrodagi karvon va shuningdek, darbadarning sahrolarda kezib yurishi "sahro"ning asardagi arxetipik roli o'z yo'lini yo'qotgan va aniq manzilga ega bo'lmagan odamzodning rivojlanishdan to'xtaganligiga ishora qiladi. Aniqroq aytganda, ushbu to'xtash jarayoni insonlar ilk marotaba Muborak Zot – Iso Masihni rad etishganida, uning ko'ksidan itarib yuborishganda sodir bo'lgan edi. Shuningdek, "sahro" arxetip ramzi umidsizlik va jazo

mazmunlarini ham ifodalab keladi. Iso Masih sahroda o'tkazgan qirq kun ushbu ramz uchun yorqin misol bo'lib xizmat qiladi. Asar davomida umidsizlik va jazo mazmunini o'zida ifodalab keluvchi voqealar ro'y beradi. Umidsizlik insoniyatning bugungi ahvoli va o'z maqsadidan, haqiqiy yo'ldan adashganini ifodalasa, jazo insoniyatning zamonaviy ilm-fanning imkoniyatlaridan foydalangan holda yaratuvchining ishini amalga oshirishga uringani va qay ma'noda Yaratganning muhim sifatlaridan biriga ega bo'lishga da'vo qilganligi sababli Yaratgan tomonidan ularga beriladigan jazoni bildiradi.

Olimlarning o'zi ham o'z kashfiyotlarini yaratish chog'ida Yaratganning ishiga aralashgan holda yaratuvchanlik bilan shug'ullanayotganlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi to'g'risida bosh qotiradilar. Mashhur olim uchrashuv chog'ida har safar yangilik va ixtiro qilish bilan shug'ullanar chog'i "Yaratganning ishiga aralashib, gunoh qilmayapmanmikin", deya shubha va gumonlar ichida qolishini ta'kidlab o'tadi. Ushbu nuqtadagi mazmunni boqiy darbadarning taqdiri bilan bog'lasak, asardagi umidsizlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Asardagi mashhur professor Ziyoning o'g'li yozgan maktub mazmunida ham, asarda keltirib o'tilgan Gabriel Garsia Markesning vidolashuv maktubi mazmunida ham, insoniyatning shu choqqacha qilgan ishlari hech qanday ahamiyat kasb etmasligi ehtimoli mavjud ekanligi, shuningdek, zamonaviylashish va globalizatsiya jarayonini insonlarni inson sifatida saqlab turgan turli madaniyatlarning yo'qolib ketishiga sababchi bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Tushkunlikka yo'g'rilgan shubha-gumonlar esa keyingi sahro bilan bog'liq voqealarda arxetipik ramz orqali o'z isbotini topadi.

Professor Ziyos samolyotda sahro tepasidan uchib borar ekan, sahroda shamol ko'tarilganligi ma'lum bo'ladi. Shamol juda ham kuchli bo'lib, uning oqibatida olimlar ichida bo'lgan samolyot qulaydi. Tabiatning bu tarzda o'z-o'zini vayron eta boshlashi esa ixtirochilarning o'z kashfiyotlari natijasi haqidagi badbin gumonlarini hamda asar voqealari bilan hamohang tarzda o'zini namoyon etib borayotgan tushkunlik va jazo haqidagi tasavvurlarni oqlaydi.

Arxetipik nuqtayi nazardan qaraganda, bunday vayronalik va halokat insonning dunyo bilan o'z munosabatini yangi qirradan anglashini anglatadi. Insonlar ming yillardan beri turli dinlarga sig'inib kelmoqdalar va ular ushbu dinni o'zlashtirgan chog'ida g'ayrushuuriy tarzda unga tayyor bo'lganlar. Ularning ichki xohishlarini o'zida namoyon etgani uchun ham dinning yoyilishi osonlik bilan kechgan. Din insonlarning o'zini anglashiga yordam bergan. Arxetipik ramz hisoblanmish halokat esa, insonning ongsizligi tubida yashiringan o'y-fikrlari, istak-irodalari o'zgarishlarni boshdan kechirayotganini, insonlar o'zligini anglashning yangi bosqichlariga ko'tarilishi lozimligidan darak. Asarning bosh g'oyasi ham o'zligidan voz kechib, asl mohiyatdan uzoqlashgan, shunchaki, besamar yashashga odatlangan odamlar jamoasini o'zligini anglashga chaqirishdir. Bunda "mukammal inson"ning o'zligini topish va hayotdan



murodini anglab yetish uchun qilgan sa'y-harakatlari va tabiat kuchlari olib kelgan vayronkorlik olomon uchun dars bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sulton I. Boqiy darbadar. "Sharq yulduzi" jurnali// –Toshkent, 2010. 6-son.
2. Burrows, Lapidés va Shawcross. Myths and motifs in literature.– New York: Free Press, 1973.
3. Sulton I. Ozod. "Sharq yulduzi" jurnali//–Toshkent, 2011. 4-5 - sonlar.
4. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан: 1979.
5. The Devil at Baptism: Ritual, Theology and Drama. Ithaca: –Cornell University Press. –2010.